SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NARZULLAYEVA DIYORA ZAYNIDIN QIZI

INGLIZ, O‘ZBEK VA TOJIK TILLARIDA KULOLCHILIK TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:811.512.133;811.222.1+81`374

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Narzullayeva Diyora Zaynidin qizi
Ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari..... 3

Нарзуллаева Диёра Зайнидин кизи
Лексико-семантические особенности гончарной терминологии в английском, узбекском и таджикском языках..... 29

Narzullaeva Diyora Zaynidin kizi
Lexico-semantic features of pottery terminology in English, Uzbek and Tajik languages..... 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 61

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NARZULLAYEVA DIYORA ZAYNIDIN QIZI

INGLIZ, O‘ZBEK VA TOJIK TILLARIDA KULOLCHILIK TERMINLARINING LEKSIK–SEMANTIK XUSUSIYATLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.1. PhD/Fil2277 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Boltakulova Gulnoza Farruxovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Sulaymanova Nilufar Jabbarovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Axmedov Oybek Saparbayevich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning “20” noyabr 2026-yil soat 10⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (666 96-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “2” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “2” noyabr dagi №62-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

U.U. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti tufayli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarga kirib kelayotgan yangi terminlarning lingvistik tahliliga e'tibor kuchayib bormoqda. Dunyo miqyosida kulolchilik sohasiga oid terminlarni tizimlashtirish, ularning semantik va etimologik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ko'p tilli terminologik lug'atlar va elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Biroq ingliz, o'zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminlarining yagona tizim asosida qiyosiy tavsiflanmagani, ayrim terminlarning ma'nosi, kelib chiqishi va qo'llanish doirasining turlicha talqin qilinishi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi terminlarning yetarli darajada qayd etilmagani muammolardan biri hisoblanadi. Shu bois kulolchilik terminlarini tizimli ravishda yig'ish va tasniflash, ularning elektron korpusini hamda uch tilli terminologik lug'atini yaratish, yangi terminlarni ilmiy asosda standartlashtirish va tarjima hamda ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyo ilmiy-tadqiqot markazlarida milliy tillar va ularning leksik tarkibi, terminologiya va kasb-hunar leksikasi, ularning struktural jihatlari mavjud lingvistik tamoyillar asosida o'rganilmoqda. Turli sohaga oid leksik birliklarning shakllanishi, lisoniy belgilari, ifoda imkoniyatlari keng tadqiq etilib, ularning ilmiy-nazariy asoslari yaratildi. Kasb-hunar leksikasini, xususan, kulolchilik terminlarini leksik-semantik, etimologik, tarixiy-genetik hamda qiyosiy-tipologik aspektlarda tadqiq etish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ilmiy jihatdan ustuvor yo'nalishlar sifatida sohaviy terminlarning shakllanish manbalari va taraqqiyot dinamikasini aniqlash, ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tizimlashtirish, shuningdek, terminologik tizimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz, o'zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminlarini chog'ishtirma o'rganish, ularning sinonimik, omonimik va polisemantik munosabatlarini aniqlash, zamonaviy texnologiyalar ta'sirida terminologiyaning yangilanish tendensiyalarini tadqiq etish hamda ko'p tilli terminologik lug'atlar va elektron korpuslarni shakllantirish dolzarb ilmiy yo'nalishlar hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida hunarmandchilikka oid so'zlarning mazmunini yoritish uchun ushbu soha birliklarini ilmiy jihatdan izchil o'rganish, shu orqali milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va kulolchilik leksikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq va mustaqil davlat milliy manfaatlarini himoya qilishda, avvalo, o'z madaniyati, azaliy qadriyatlari hamda ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratishi tabiiydir"[1]. Shu sababli tilshunoslikda xalq tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar manbai bo'lgan, aholi turmush tarzidagi davriy o'zgarishlar hamda moddiy va ma'naviy merosni

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5850 – sonli Farmoni. Manba: http://lex.uz/docs/4561730.

aks ettirgan kasb-hunar leksikasini tizimli o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, ushbu birliklarning hududiy tafovutlari umumxalq tili taraqqiyotini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, kulolchilik terminlarining leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini ingliz, o‘zbek va tojik tillarida chog‘ishtirma aspektda tadqiq etish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya va sohaviy leksikaning qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik va struktur jihatlari keng o‘rganilib, sohalar terminologiya tadqiqi doirasida tizimli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida S.Hubakova, I.Semradova, K.Bahadır, S.Vu; rus tilshunosligida G.O.Vinokur, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, A.V.Superanskaya, V.M.Leychik, T.L.Kandelaki, S.V.Rojdestvenskaya kabi tilshunos olimlar[2] o‘zlarining ilmiy izlanishlari bilan terminologiya rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

[2] Hubackova S., Semradova I. On Acquiring New Vocabulary of a Professional Text. // Procedia: Social and Behavioral Sciences. 2012. Volume 47. 382–386 p; Bahadır K. Mesleklerin Tanımlanması ve Sınıflandırılması Üzerine Bir Değerlendirme. // Journal of Turkish Studies. 2018. 13 (Volume 13 Issue 19). 1219 –1233 p; Woo S. Factors associated with the perception of parents and children regarding obesity-related terminology used by healthcare professionals in a sample of Korean children and adolescents with obesity. // Obesity Research & Clinical Practice. 2022. Volume 16, Issue 5. 421– 428 p; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статьей по языковедению. – М., 1939; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.,1961; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 196; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1969; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с; Рождественская, С. В. Структурно-семантическая организация керамической терминологии в английском и русском языках: дис.канд. филол. наук: – Пятигорск, 2009. – 186 с.

O‘zbek va tojik terminologiyasida dastlabki ilmiy tadqiqotlar XX asrning 50-60-yillaridan boshlab yaratildi. Turli sohalar leksikasi va terminologiyasining nazariy masalalari, kasb-hunarga oid birliklarning muayyan til leksikasi tarkibida tutgan o‘rni o‘zbek tilshunos olimlar: S.Ibrohimov, S.Usmonov, X.Djamalxanov, T.Nugamnov, A.Djurabayev, R.Doniyorov, T.Xodjamberdiyev, T.Tursunova, X.Dadaboyev, N.Ikromova, K.Sapayev, X.Shamsiddinov, A.Madvaliyev, Z.Mamatkulova va boshqalar[3]; tojik tilshunos olimlar: M.Rustamov, N.Sharofov, M.Shukurov, R.Gafforov, D.Saymiddinov, M.Kosimova, M.Sultonov, S.Nazarzoda, T.Shokirov, M.Bekmurodov, S.Halimova , Z.Mirzoyev , G.Sa'dieva , Sh.Karimov, M.Komilov, X.Burxonova, Z.Abdulloeva, Sh.Jahongirov va boshqalar[4] tomonidan o‘rganildi. Sohalar terminologiyasiga oid salmoqli ishlar

[3]Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I – жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956; II III – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959; Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968; Джамалханов Х.А. Из истории формирования и развития ботанической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968; Нугамнов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанском группы говоров): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971; Дониёров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: дисс. ... д ра филол. наук. – Ташкент, 1988; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977; Ходжамбердиев Т. Животноводческая лексика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975; Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978; Дадабоев Х. Военная лексика в старо узбекском языке: Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981; Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: дисс. ... канд. филол. наук – Ташкент, 1984; Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент, 1984; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986; Сабиров А.Ш. Термины узбекских народных зрелищ: дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988; Нуъманов Т. Полизчилик терминларининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари ҳақида. – Наманган,1993; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004; Ахатова М. Ўзбек тилининг ёғочсозлик терминологияси: Филол. фан. номз… дисс. – Тошкент, 2004; Ғуломова Г. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. филол. Фан. номз… дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Усманова Ш. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. – Тошкент, 2010; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. Бердиев Х.Х. Ўзбек тилининг ўтовсозлик лексикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2017; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Джурабаева З.А. Ўзбек тилида экологик терминлар: Филол. фанл. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018; Алиева М. Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018; Эрматов И.Р. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Ибатова А. Ўзбек тилида нон ва нон маҳсулотлари билан боғлиқ луғавий бирликлар тадқиқи: филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2023; Z.Mamatkulova Rishton kulolchilik leksikasining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. b-cha fals. d-ri (PhD) ...diss. – Farg‘ona, 2024.

[4]Рустамов М. Таджикская грамматическая терминология. – Душанбе: Дониш, 1972. – 124 с; Шарофов Н. А. Пути развития лексики современного таджикского литературного языка: автореф. дис...д-ра филол. наук. – Баку, 1974. – 68 с; Шукуров М. Забони мо-ҳастии мост. – Душанбе: Маориф, 1991. – 232 с; Ғаффоров Р. Нависанда ва забон – Душанбе: Ҷаҳон, 1977. – 208 с; Саймиддинов Д. Вожашиносии забони форсии миёна.

amalga oshirilgan bo‘lsada, aynan, kulolchilikka oid birliklar, xususan, ingliz, o‘zbek va tojik kulolchilik maktabi kasb-hunar leksikasi leksik-semantik jihatdan qiyosiy tadqiq etilmagan. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda til, adabiyot, tafakkur va jamiyatning o‘zaro aloqalari, sun’iy intellekt va raqamli tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulochilik terminlarining leksik–semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma tahlilini amalga oshirishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz, o‘zbek va tojik tillarda kulolchilik terminlarining shakllanish tarixi hamda ularning terminologiyada tutgan o‘rnini yoritish;

kulolchilik leksikasining yuzaga kelish omillari va genezisidan kelib chiqib, etimologik xususiyatlariga doir nazariy qarashlarni aniqlash;

chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining lisoniy jihatdan umumiy xususiyatlari, lug‘ati va semantikasidagi o‘xshash hamda differensial xususiyatlarini qiyosiy tadqiq qilish;

ingliz, o‘zbek va tojik tillarining kulolchilik terminlarini etimologik tahlil qilish va ularning leksik-semantik xususiyatlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, o‘zbek va tojik tillarining kulolchilik terminlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining leksik va semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash metodi, tasniflash, qiyosiy-tipologik, semantik, lingvostatistik va etimologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

– Душанбе: Пайванд, 2001. – 310 с; Қосимова М. Н. Мухтасар оид ба истилоҳоти забоншиносии пешин. – Душанбе: 2003. – 113 с; Султон М. Ҳ. Ташаккул ва такоммули истилоҳоти илмии форсӣ – тоҷикӣ. – Душанбе: Дониш, 2008. – 334 с; Назарзода С. Истилоҳоти забони тоҷикӣ: таърих, пайдоиш ва дурнамо. – Душанбе: Дақиқӣ, 2013. – 370 с; Шокиров Т. Лингвистические изучение юридических терминов. – Хуҷанд: Дабир, 2017. – 364 с; Бекмуродов М. Лексико – семантический и структурный анализ строительной терминологии: на материале таджикскго и английского языков: автореф... дис.канд. филол. наук: – Душанбе, 2002. – 26 с; Ҳалимова С.Ш. Вожаю истилоҳоти пешаварӣ дар осори Сайидои Насафӣ – Душанбе: Ирфон, 2014. – 176 с; Мирзоев З. Спортивная терминология в таджикском и английском языках: автореф...дис...канд. филол. наук: – Душанбе, 2005. – 24 с; Саъдиева Г.Структурно-семантический анализ сельскохозяйственной терминологии в таджикском, русском и английском языках: автореф...дис...канд. филол. наук: – Душанбе, 2006. – 26 с; Каримов Ш. Лингвистические особенности экологической терминологии в таджикском и английском языках: автореф...дис...д- ра. филол. наук: – Душанбе, 2021. – 46 с; Комилов М. М. Структурно-семантический анализ философских терминов в таджикском и английском языках: автореф.дис.канд. филол. наук: – Душанбе, 2020. – 27 с; Бурханова Х. Лексика гончарного производства в таджикском языке автореф.дис.канд. филол. наук: – Душанбе, 1982. – 21 с; Мирзоев, З. Спортивная терминология в таджикском и английском языках: автореф...дис...канд. филол. наук: – Душанбе, 2005. – 24 с; Абдуллоева Г.З. Этнолингвистические аспекты лексики гончарной отрасли в говорах Гиссарской долины. Вестник Интитута языков. - № 3 (39). – 2020. – С. 18 – 22; Ҷаҳонгиров Ш.Ҳ. Нақши истилоҳоти иқтибосии кулолгарӣ дар рушди таркиби луғавии забони англисӣ ва шарҳи онҳо ба забони тоҷикӣ. – Паёми Донишгоҳи давлатии Бохтар ба номи Н. Хусрав. – № 4. қ. 2. – Бохтар, 2021. – С. 40 – 44.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining tarixiy-genetik ildizlari hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi dinamikasi, ularning semantikasidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar va yangilanishlar aniq materiallar asosida dalillangan;

o‘rganilayotgan tillarda kulolchilik leksikasiga oid birliklarning hozirgi bosqichdagi holati, soha terminologiyasining ichki va tashqi omillar orqali boyish manbalari, xususan, ichki manbalar sifatida so‘z yasash jarayonlari (affiksatsiya, kompozitsiya), semantik taraqqiyot hamda terminologik birikmalar hosil bo‘lishi, tashqi manbalar sifatida esa boshqa tillardan o‘zlashgan birliklar (fors-tojik, arab, rus va ingliz tillari orqali kirgan terminlar), xalqaro terminlar hamda kalkalash jarayonlari aniqlangan hamda mazkur birliklarning lug‘aviy ma’no va leksik-semantik xususiyatlari isbotlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining leksik, morfologik va grammatik jihatdan umumiy xususiyatlari, xususan, terminlarning kasbiy semantik maydonga mansubligi, terminologik birikmalar shaklida qo‘llanishi, ko‘p komponentli birliklarning mavjudligi, so‘z yasashning affiksatsiya va kompozitsiya kabi modellari orqali hosil bo‘lishi hamda ularning asosan ot turkumiga mansubligi kabi jihatlar aniqlanib, mazkur terminlarning milliy-madaniy aspektdagi farqli tomonlari asoslangan;

tahlil qilinayotgan tillarda kulolchilik terminlarining semantik jihatdan sinonimik, omonimik hamda ko‘p ma’nolilik xususiyatlari leksik, frazeologik va paremiologik qatlamlarda qiyosiy tarzda ochib berilgan hamda ularning badiiy matnlarda obrazlilikni kuchaytirish, milliy-madaniy koloritni ifodalash, kasbiy nutq elementlarini berish va ko‘chma ma’no hosil qilish kabi uslubiy funksiyalari yoritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda kasb-hunarga oid terminlar, xususan, kulolchilik leksikasining leksik-semantik xususiyatlari, kulolchilik sohasiga oid terminlarning ichki va tashqi omillar asosida shakllanishi, takomillashuv jihatlari, chog‘ishtirma tadqiqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar sohaga oid terminologik lug‘atlarni tayyorlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mukammallashuvini ta’minlashda nazariy manba sifatida xizmat qilishi asoslangan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar kulolchilik sohasining terminologik lug‘atlarini tuzishda hamda terminografiya masalalari tahlilida amaliy ahamiyatga ega;

ingliz, o‘zbek va tojik tillarida “kulolchilik” sohasiga oid terminlarning uch tilli lug‘ati shakllantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan tadqiqot usullarining asosliligi, qo‘yilgan muammoning aniqligi, ilmiy-nazariy tahlillarning dalillanganligi, terminlar ma’nolari aniq manbalarga tayanib izohlanganligi, keltirilgan tahlillar tavsifiy, leksik-semantik, qiyosiy-tipologik tahlil metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati shundan iboratki, terminlarning sohalararo qo‘llanishi bilan bog‘liq ijtimoiy, madaniy va lisoniy omillar ochib berilgan; kulochilikka oid terminlarning ensiklopedik, izohli va tarmoq lug‘atlaridagi izohi semantik va leksik jihatdan qiyoslanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa olingan natijalardan, terminlarni qiyoslash va semantik tahlili natijalaridan “Leksikologiya”, “O‘zbek tili terminologiyasi”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvistik tahlil metodlari” kabi o‘quv kurslari mazmunini boyitishda foydali material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulochilikka oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining tarixiy-genetik ildizlari hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlaridagi dinamikasi, ularning semantikasidagi o‘ziga xos o‘zgarishlar va yangilanishlar aniq materiallar asosida dalillanganligi bo‘yicha erishilgan natijalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrdagi 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 7-fevraldagi 356/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, terminlarni qiyoslash va semantik tahlili bo‘yicha xulosalar “Leksikologiya”, “O‘zbek tili terminologiyasi”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” “Qiyosiy tilshunoslik”, “Lingvistik tahlil metodlari” kabi o‘quv kurslari mazmunini boyitishda foydali material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi;

o‘rganilayotgan tillarda kulolchilik leksikasiga oid birliklarning hozirgi bosqichdagi holati, soha terminologiyasining ichki va tashqi omillar orqali boyish manbalari, xususan, ichki manbalar sifatida so‘z yasash jarayonlari (affiksatsiya, kompozitsiya), semantik taraqqiyot hamda terminologik birikmalar hosil bo‘lishi, tashqi manbalar sifatida esa boshqa tillardan o‘zlashgan birliklar (fors-tojik, arab, rus va ingliz tillari orqali kirgan terminlar), xalqaro terminlar hamda kalkalash jarayonlari aniqlangan hamda mazkur birliklarning lug‘aviy ma’no va leksik-semantik xususiyatlari isbotlanganligi bo‘yicha berilgan tavsiyalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ – 800 – 21GR-381 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti 2025-yil 26-fevraldagi 04/751-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik kabi fanlarni o‘qitishda mazkut tahlillar orqali talabalarning semantik tahlilni amalga oshirish qobiliyatlari rivojlanishi aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining leksik, morfologik va grammatik jihatdan umumiy xususiyatlari, xususan, terminlarning kasbiy semantik maydonga mansubligi, terminologik birikmalar shaklida qo‘llanishi, ko‘p komponentli birliklarning mavjudligi, so‘z yasashning affiksatsiya va

kompozitsiya kabi modellari orqali hosil bo‘lishi hamda ularning asosan ot turkumiga mansubligi kabi jihatlar aniqlanib, mazkur terminlarning milliy-madaniy aspektdagi farqli tomonlari asoslanganligi haqidagi xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities” (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar instituti 2025-yil 7-fevraldagi 357/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha kesimidagi tadqiqot ishlarida kulolchilik sohasiga oid terminlarning ichki va tashqi omillar asosida shakllanishi, takomillashuv jihatlari, chog‘ishtirma tadqiqidagi ilmiy-nazariy qarashlar manba sifatida xizmat qilishi asoslangan;

tahlil qilinayotgan tillarda kulolchilik terminlarining semantik jihatdan sinonimik, omonimik hamda ko‘p ma’nolilik xususiyatlari leksik, frazeologik va paremiologik qatlamlarda qiyosiy tarzda ochib berilgan hamda ularning badiiy matnlarda obrazlilikni kuchaytirish, milliy-madaniy koloritni ifodalash, kasbiy nutq elementlarini berish va ko‘chma ma’no hosil qilish kabi uslubiy funksiyalari yoritilganligiga oid tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2025-yil fevral oyida efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvini navbatdagi sonlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-fevraldagi 01-07/71-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv mazmun-mundarijasi ilmiy-ma’rifiy ahamiyatga ega qarashlar bilan boyitilgan, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matni 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot materiali tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy

etish, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda kulolchilik terminologiyasini o‘rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda kulolchilikka oid terminlarning lingvistik, tarixiy va madaniy jihatlarini keng qamrovda tadqiq qilingan.

Bobning birinchi paragrafi *“Tilshunoslikda “termin” tushunchasi va “terminologiya” sohasi tadqiqi”* deb nomlangan. Ushbu paragrafda termin tushunchasining lingvistik tabiatiga oid qarashlar, termin va terminologiyaning farqlari, shuningdek o‘zbek adabiy tilidagi terminlarning o‘rni haqida fikrlar yoritilgan. Hozirgi zamon terminshunosligining asosiy yo‘nalishlari, uni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishning ahamiyati ko‘rsatilgan.

Jahon tilshunosligida maxsus terminologik ma’no kasb etgan o‘ziga xos til birligi – terminni o‘rganishga bag‘ishlangan bir qancha lingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Dunyo tilshunosligida terminshunoslik masalalari o‘tgan asrning 70-yillaridan keng o‘rganilishi boshlangan. Bugungi kunga qadar o‘tkazilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarga qaramay, zamonaviy tilshunoslikda terminlarni aniqlash muammosi munozarali bo‘lib qolmoqda. Terminlarning muhim xususiyatlari D.S. Lotte, V.P. Danilenko, T.L. Kandelaki, V.M. Leychik, A. Superanskaya, V.G. Gak, G.O.Vinokur, S. Akobirov, O. Ahmedov, E. Begmatov, H. Dadaboyev, R. Doniyorov, G‘. Ismailov, A. Hojiyev, A. Ishayev, A. Madvaliyev, M. Mirtojiyev, O. Usmonov, M. Abdiyev, D. Xudoyberganova[5] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan, biroq tilshunoslikda termin tushunchasining keng qamrovli va universal ta’rifi hamon aniq emas.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, iste’molda bo‘lgan va yillar davomida amal qilib kelingan va xalq nutqiga singib ketgan terminlardan tashqari ayrim o‘zlashma terminlar mazmun jihatdan chuqur o‘rganilmasdan ham dabdurustdan yangi terminlar sifatida o‘zlashtirilib, eskilari bilan almashtirildi. “Termin”,

[5] Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989; Гак В.Г. Асимметрия лингвистического знака и некоторые общие проблемы терминологии (семантические проблемы языка науки) // Материалы научного симпозиума. – М.: МГУ.1972. – С. 68 – 71; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статьей по языковедению. – М., 1939; Akobirov S. Til va terminologiya. – Toshkent: O‘zbekiston KP MKning birlashgan nashriyoti, 1968. – 40 b.; Axmedov. O.S. Ingliz va o‘zbek tillarida soliq-bojxona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari. Filol. fanlari dokt... dis avtoref. – Toshkent, 2016. – 19 b.; Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. – Toshkent: Fan, 1985. – 82 b.; Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019. – 118 b.; Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 159 b.; Ismailov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 26 b.; Hojiyev A. Termin tanlash mezoni. – Toshkent, 1996. – 126 b.; Ishayev A. Terminologiyamizning rivojlanishida o‘zbek shevalarining o‘rni // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 78-84; Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikologiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 384 b.; Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2000. – 424 b.; Usmonov O., Sh. Hamidov Sh. O‘zbek tili leksikasi tarixidan materiallar (XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari). – Toshkent: Fan, 1981. – 114 b.; Abdiyev M. Sohaviy terminologiyaning sistem tahlili muammolari. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. – 187 b.; Xudayberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – 160 b.

“terminologiya” so‘zi o‘rniga “atama”, “atamashunoslik” leksemalari tatbiq etilib, bu tushunchalar spesifik xarakterda ekanligi e’tiborga olinmadi. “Atama” keng qamrovli tushuncha bo‘lib, unda terminologiyaga umuman tegishli bo‘lmagan toponimiya, antroponimiya, oykonimiya, ya’ni onomastikaga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Professor U.Tursunov o‘zbek tili terminologiya masalalariga aniqlik kiritib, bir tushunchaning turlicha atama sifatida yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o‘rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o‘zbek atamashunosligini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish uslublari, faktlari mavjudligi ko‘rsatilgan[6].

Biz tadqiqotimizda avvaldan iste’molda bo‘lgan baynalmilal “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo‘llashni lozim deb topdik.

Bobning ikkinchi paragrafi *“Kulolchilik terminologiyasining ilmiy va tarixiy manbalardagi talqini”* deb nomlangan. Bu bo‘limda kulolchilik san’atining qadimiyligi, arxeologik manbalarda, O‘rta asr adabiyoti va tarixiy matnlarda uchraydigan terminlar haqida fikr yuritilgan.

Har bir xalq o‘zining ichki imkoniyatidan, kundalik turmush tarzidan, milliy an’analaridan va urf–odatlaridan, yashash sharoitlaridan kelib chiqqan holda ma’lum amaliy san’at bilan mashg‘ul bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek va tojik xalqi kulolchilik bilan asrlar davomida shug‘ullanib kelmoqda. Kulolchilikka oid terminlar o‘zbek kasb-hunar leksikasining bir qismiga aylanib qolgan. Bundan yaqqol ko‘rinadiki, kasb-hunar leksikasi milliylik belgisini ham bildirib, uni kishilarning mehnat faoliyati, kundalik mashg‘uloti bilan bog‘liq holda o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Kulolchilik terminlarining genezis asoslari uzoq o‘tmishga, kulolchilik terminologiyasining tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, uning davriga oid lug‘at va terminlarni ikki katta davrga ajratish mumkin:

I. Qo‘l mehnati kulolchiligi davriga oid terminlar va ibora-terminlar. Ushbu davrning kelib chiqish tarixi hozirgacha aniq bo‘lmagan, va bu haqda tarixchilarning munozaralari davom etmoqda. Asosan, bu davrdagi kulolchilik faoliyati qo‘l mehnati orqali amalga oshirilgan va quyidagi terminlar va ibora-terminlardan iborat bo‘lgan: (***clay*** *- gil -* ***гил;*** ***containers*** *- zarflar -* ***зарфҳо;*** ***household items*** *- uy-ro‘zg‘or buyumlari, uy asboblari -* ***ашёҳои хонаводагӣ;*** ***ceramics*** *- keramika -* ***сафол;*** ***pottery*** *- keramika, kulolchilik -* ***кулолӣ;*** ***kiln*** *- pech (idishlar pishiriladigan joy) -* ***қӯра;*** ***the art of pottery*** *- kulolchilik san'ati -* ***ҳунари кулолгарӣ;*** ***potter's wheel*** *- kulol g‘ildiragi -* ***чархи кулолгарӣ;*** ***the technology of making clay products*** *- yerdan tayyorlangan buyumlar tayyorlash usuli -* ***технологияи истеҳсоли сафол;*** ***hand-made pottery*** *- qo‘l mehnati bilan idish yasash -* ***кулолгарии дастӣ.)*** Ko‘pgina yuqoridagi terminlar ibora sifatida ishlatilgan.

II. Kulolchilik g‘ildiragini ishlatish davriga tegishli terminlar va ibora-terminlar. Tarixchilarning guvohligiga ko‘ra, kulolchilik g‘ildiragi insoniyat

[6] Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1975. – 152 б.

tomonidan miloddan avvalgi 3500-yil oldin ixtiro qilingan va shu bilan gilni ishlov berish va keramika yasash texnologiyasida yangi davr boshlangan. Hozirgi kunda dunyoning turli mamlakatlarida kulolchilik g‘ildiragidan foydalanib mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu davrda ishlatilgan lug‘atlar va terminlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (***Pottery (the art of ceramics)*** - *kulollik (keramika san'ati)* - *кулолгарӣ (ҳунари сафолгарӣ);* ***Kiln (pottery processing tool)*** - *xumdon (kulolning ishlov berish uskunasi)* - *кӯра (асбоби коркарди кулолӣ);* ***The art of miraculous decoration*** - *ajubasozlik san'ati (mo‘jizaviy bezak ishlovlari)* - *ҳунари офаридани ороишҳои мӯъҷизавӣ;* ***The art of making ovens*** - *tandirsozlik (pech yasash san'ati)* - *ҳунари сохтани танӯр;* ***Handmade pottery*** - *qo‘l kulolligi (qo‘l mehnati bilan keramika yasash)* - *кулолгарии дастӣ; va boshqalar).* Agar bu terminlarning morfologik tuzilishiga qarasak, ularning aksariyati ibora sifatida ishlatiladi va asosan naxviy bog‘lanish orqali shakllangan, hozirda juda keng tarqalgan[7].

Ma'lumki, **“kulolchilik”** termini qadimiy tarixga ega. Klassik asarlarda bu so‘z *“kulol”* shaklida, ya'ni *“ko‘zagar”* va *“kosa'gar”* ma'nolarida ishlatilgan bo‘lib, *“kuloliy”* esa kulolchilik kasbining nomi hisoblanadi. Ammo, *“temirchi”*, *“quyuvchi”*, *“zargar”* kabi so‘zlar bilan o‘xshash ravishda, bu so‘z kontaminatsiya holatida, *“kulolgar”* va *“kulolchilik”* shaklida ham hozirgi o‘zbek va tojik adabiy tilida va uning lahjalarida keng qo‘llaniladi. Agar **“kulolchilik”** terminining o‘ziga qarasak, bu - yaratilgan ism bo‘lib, uning tarkibida **“kulol”** so‘zi **“**ko‘zavoy, kosa va boshqa keramika idishlarini yasovchi hunarmand” ma'nosini anglatadi, va ism yasovchi ***-gar*** va ***-iy*** qo‘shimchalari ishtirok etadi. **“Kulolchilik”** terminining lug‘aviy ma'nosi esa - kulolchilik kasbi, keramika idishlarini yasash va o‘choqda pishirish jarayonini anglatadi” [8]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa **“kulol”** termini ko‘zagar-ya’ni ko‘za va boshqa sopol buyumlar yasovchi, loydan turli sopol idishlar, buyumlar tayyorlaydigan hunarmand deb ta’rif berilgan. ***Masalan:*** *Bo‘zchi belboqqa yolchimas, kulol mo‘ndiga* [9]. **“Kulollik”** termini esa o‘zbek tilining izohli lug‘atida kulol ishi, kasbi ma’nolarini anglatuvchi birlik sifatida ta’rif berilgan. ***Masalan:*** *Kulollik orqali kapponga yo‘l soldim* [10].

Shuningdek, **“Kulolchilik”** terminiga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan: kasb-hunarning loydan turli idish va boshqa narsalar yasash bilan bog‘iq sohasi. Bundan tashqari, kulolchilik sohasiga oid terminlarning tarixiy shakllanishi, madaniy va badiiy matnlardagi aks etishi chuqur yoritilgan. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “**ajaqchi”**, Rabg‘uziy asaridagi “**ayoq”**, “**kub”**, “**oshich”** kabi so‘zlar, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning asarlarida uchraydigan “**ko‘za”**, “**kosa”**, “**qadah”**, “**ibriq”**, “**tabaq”**, “**dosh”** kabi kulolchilikka oid leksemalar – bularning barchasi

[7] Таджики Каратегина и Дарваза / Под ред. Н.А. Кислякова и А.К. Писарчик. – Душанбе, 1970. – 230 с.
[8] Доро Наҷот. Фарҳанги Доро (луғатномаи барчидаи тафсир ва решашинохтӣ). Ҷилди 2. Н – Я. Душанбе, 2021. – 430 с.
[9] O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild, T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B 432.
[10] O‘sha manba: B. 433.

turkiy tillarda ushbu soha terminologiyasining qadimiy ildizlarga ega ekanini koʻrsatadi.

Har bir termin oʻziga xos rang-barang va diqqatga sazovor tarixga ega boʻlib, kulolchilik yoki keramikaga oid terminlar ham bundan mustasno emas. Agar **“sopol”** terminining asl kelib chiqishiga qarasak, u Hindyevropa tillarida, jumladan ingliz va rus tillarida **“keramika”** shaklida qoʻllanilgan va ikki shaklda mavjud boʻlgan: **1).** Yunon tilidan **“keramike”** shaklida - **“kulolchilik san'ati”** ma'nosida va **«keramos»** shaklida - “gʻisht” maʼnosida; **2). “Keramika”**-termini qadimgi Afinaning **“Cerami”** mintaqasidan olingan boʻlib, bu yerda kulollar gʻishtdan turli xil mahsulotlar yasaganlar. Garchi bu termin qadimiy boʻlsa ham, XIX asrning oʻrtalarida evropaliklar, jumladan inglizlar va ruslar tomonidan qoʻllanila boshladi va qisqa vaqt ichida xalqaro termin sifatida (inglizcha **“ceramics”,** fransuzcha **“céramique”,** nemischa **“keramik”,** ruscha **“керамика”**) keng tarqaldi. Ingliz tiliga esa bu termin fransuz tilidan kirib kelgan boʻlib, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatilmoqda. Yuqorida aytib oʻtilganidek, **“keramika (sopol)”** termini ingliz tiliga fransuz tilidan **“porcelain”** shaklida kirgan, oʻzbek va tojik tillariga esa bu termin rus tilidan olingan. Bundan tashqari, ingliz tilida **“keramika (sopol)”** ma'nosi ikki soʻz bilan ifodalanadi: **“porcelain”** va **“stoneware”. *“Ceramics* – *Sopol mahsulotlari* – *Сафол”*** termini **“Oxford Advanced Learner’s Dictionary”** lugʻatida quyidagi ma'nolarga ega: **1). ceramic -** gʻishtdan yoki boshqa gil materialidan yasalgan, issiqlik bilan doimiy ravishda mustahkam boʻlib qolgan idish yoki boshqa buyum (keramika – gil va boshqa materiallardan yasalgan, issiqlik orqali mustahkam boʻlgan idish yoki boshqa mahsulot); **2). ceramics -** keramika buyumlarini yasash va ularni bezash san'ati» (keramika – kulolchilik mahsulotlarini yasash va ularni oʻroq qilish san'ati)[11] deb tushuntirilgan, **“Longman Dictionary of English Language and Culture”** lugʻatining mualliflari esa yuqoridagi terminga quyidagi ta'rifni berishgan: “**ceramics -** gil boʻlaklarini shakllantirib, ularni qotib qolguncha pishirish orqali xumdon, koshin va boshqalarni tayyorlash” [12].

Ingliz, oʻzbek va tojik tillarining lugʻaviy tarkibidagi tizim, soʻzlar va terminlarning manbalari va davriylikdan qatʼiy nazar, bir qator tushunchalardan iborat boʻlib, ular kulolchilik terminlarining qoʻllanilish xususiyatlarini aks ettiradi.

Bobning uchinchi paragrafi *“Ingliz, oʻzbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining shakllanish manbalari”* deb nomlangan boʻlib, ingliz, oʻzbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining shakllanishi va rivojlanishida alohida oʻrin tutadigan manbalar tahlil qilingan. Kulolchilik terminlarining shakllanishi va rivojlanishida tarixiy va geografik asarlar, ilmiy va badiiy asarlar, lugʻatlar va ensiklopediyalar oʻrni juda katta rol oʻynaydi. Mazkur faslda “Tojikon”, “Rasmli arxeologik lugʻat”, “Markaziy Osiyoning kulolchilik buyumlari”, “Devonu lugʻotit turk”, “Boburnoma” kabi manbalardan olingan misollar tahlilga tortilgan.

[11] Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. New Eighth Edition. Oxford, New York: Oxford University Press. 2010. – 236 p.

[12] Longman Dictionary of English Language and Culture New Edition. Edinburg: Pearson, 2005. – 215 p.

Kulolchilik terminologiyasining rivojlanishida ulkan hissa qo‘shgan **“Tojikon”** asarining tahliliga to‘xtalib o‘tamiz. Mazkur asar akademik Bobojon G‘afurovning asaridir. Ushbu asarda tojik xalqining tarixi mukammal ilmiy konsepsiyaga asoslangan holda tahlil qilingan bo‘lib, unda tarixiy, etnografik, lingvistik, arxeologik va boshqa sohalarga oid termin va iboralar keng o‘rin egallaydi. Mazkur asarda turli davrlar davomida termin va ibora-terminlarning paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan[13]. Morfologik tarkibiga ko‘ra, mazkur asardagi kulolchilik termin-ismlarini quyidagicha tasnifladik:

Sodda kulolchilik terminlari. Ushbu turdagi terminlar mazkur asarda juda ko‘p bo‘lib, ularning eng keng tarqalganlaridan ba’zilarini quyida keltirib o‘tamiz: ***tuproq, gil, sopol, ko‘za, zarf, xum, sir, piyola, kosa, tavaq, qo‘ra, angob – Masalan:*** *“Avval o‘zi zarfni kulolchilik g‘ildiragida yasab, keyin quritib, yuzasini naqsh tayyorlash uchun angob bilan yuvardilar” (b.433).*

Yasama terminlar. Ushbu turdagi terminlar odatda umumiy termin yasash shakli - morfologik yoki affiksal shaklida yaratilgan bo‘lib, ularning tarkibida so‘z yasash elementlari, ya’ni prefiks va suffikslar faol ishtirok etadi. Shuning uchun, mazkur asardagi kulolchilik terminlarini tahlil qilish jarayonida biz faqat ikkita affiksni kuzatdik, ulardan biri **– *iy*** suffiksi, ikkinchisi **– *cha*** suffiksidir. ***Masalan:*** *ko‘zacha - “Yozuvlar, shuningdek, ko‘za va ko‘zachalar hamda qora chiroq yuzasida ham ko‘rinadi” (b. 397).*

Murakkab terminlar. Har uchala chog‘ishtirilayotgan tilda ham, murakkab terminlar sintaktik va morfologik usulda yaratilgan bo‘lib, ular ikki mustaqil qismdan tashkil topadi. O‘zbek va tojik tilidagi murakkab terminlarning aksariyati, asosan, murakkab ismlarni tashkil etadi. Ushbu guruhdagi terminlar turli shakl va konstruksiyalar asosida yaratiladi, va ular tarkibidagi mustaqil ma’no birliklari muhim rol o‘ynaydi, ***masalan:*** **Ism + Ism:** ***устохона*** *– “Устохона аз ду бинои пайваст иборат аст. Дар яке аз ин биноҳо дар суфаи паст хуме чаппа шинонда шудааст, ки он вазифаи кӯраро адо мекард”;* ***ustaxona*** *– “Ustaxona ikki alohida binoga birlashtirilgan bo‘lib, ulardan birida pastki polda xumning teskari holatda joylashgan edi, u o‘zi kulolxona vazifasini bajarardi” (b. 213).*

Tarkibiy terminlar yoki ibora-terminlar. Chog‘ishtirilayotgan tillardagi eng sermahsul so‘z hosil qilish va termin yasash usullaridan biri – sintaktik usul bo‘lib, unda so‘zlar va terminlar bir-biriga bog‘liq va aloqador bo‘ladi, lekin ba’zi hollarda bu bog‘lanish so‘zlarning teng huquqliligiga asoslanadi, boshqa hollarda esa bitta so‘z mustaqil bo‘lib, boshqasi unga bo‘ysunadi. Ibora-terminlarning qismlari miqdori asosida, ushbu asardagi ibora-terminlarni ***ikki qismli, uch qismli, to‘rt qismli*** va ***besh qismli*** ibora – terminlarga ajratish mumkin:

Ikki qismli ibora – terminlar. Ushbu turdagi ibora-terminlar tojik tilida izofiy aloqaga asoslangan bo‘lib, unda aniqlovchi va bayon qiluvchi so‘zlar izofiy qo‘shimcha **– *i*** orqali bog‘lanadi. Izofiy qo‘shimchani, asosan, aniqlanayotgan so‘z oladi. ***Masalan: Safolpora*** *–Дар бомпӯшӣ сафолпораҳо ҳам истифода мешуд;*

[13] Ғафуров, Б. Тоҷикон. Таърихи қадимтарин, қадим, асри миёна ва давраи нав. – Душанбе: Нашриёти муосир, 2020. – 526 с.


Tomni yopayotganda sopolporalar ham ishlatilgan (b.191); ***Dukoni kuloliy*** *– Дар шаҳр бисёр устохонаҳои ҳунармандӣ, аз ҷумла, дӯконҳои кулолӣ буданд (b.193).* Ingliz tilida esa, aksincha, bu terminlar guruhi o‘zaro bog‘liqlik asosida, ya’ni predlog va bog‘lovchilar orqali hosil bo‘ladi. Bunday bog‘lanishda odatda hol va to‘ldiruvchilar o‘z izohlanayotgan so‘ziga bo‘ysunadi. ***Masalan: production of ceramics*** *– Besides extraction of metals, metallurgy, land cultivation and cattle-breeding, production of ceramics and stone artifacts on a large scale had also started (p. 35).* ***Sifat qo‘shish:*** Misol uchun, ingliz tilida ham ba’zi iboralar quyidagi tarzda tuziladi. Bular asosan asosiy so‘zga bog‘lanib, alohida so‘zlarning birikmasi hisoblanadi, va ular har xil sinflarga (ismiy, sifatli, raqamli, va olmoshli) bo‘linadi. Quyida ba’zi misollarni tahlil qilib ko‘ramiz: ***Masalan: painted pottery*** *– The inhabitants of Chust settlement were predominantly agricultures. For them* ***painted pottery*** *was characterics (p. 40).*

Uch qismli ibora-terminlar.

Bu turdagi ibora – terminlar odatda murakkab iboralar sifatida keng tarqalgan, chunki ular ikkita yoki undan ortiq mustaqil so‘zlardan tashkil topgan. Ushbu turdagi ibora–terminlar ham, yuqorida tahlilga tortilgan asarda juda ko‘p uchraydi: ***Masalan: Зарфҳои нақшини сирдор*** *– Дар асрҳои IX-X зарфҳои нақшини сирдор хеле гуногун буданд; IX–X–*asrlarda emal naqshlari bilan bezatilgan idishlar juda xilma–xil edi" *(b.396);* ***Porridge ceramic bowl*** *– In the XI-XIII centures, a* ***porridge ceramic bowl*** *was made;* “XI–XIII asrlarda yormali sopol kosa ishlab chiqarilgan” *(p. 206).*

To‘rt qismli ibora–terminlar. Bu turdagi ibora–terminlar to‘rtta mustaqil ma’noni birlashtirib, ibora–terminlarni hosil qiladi. Bunday iboralarning qismlari turli nutq bo‘laklaridan bo‘lishi mumkin. ***Masalan: Зарфҳои сафолии тунуки бесир*** *–Зарфҳои сафолии тунуки бесир ва пурнақшу нигори асрҳои XI –XII хеле ҳунармандона сохта шудаан;* ***Ceramics with colored decorative design*** *– A characteristic peculiar to the culture of Southern Turkmenistan in Chalcolithic epoch with survived until the end of the Bronze age is its ceramics with colored decorative design*; ***Production of fancy dinner crockery-*** *The other characteristic is the large place occupied in the* ***production of fancy dinner crockery*** *by unglazed but richly and diversely ornamented vessels (p. 36)* (Б.Ғафуров. Тожикон).

Shu tariqa, **“Tojikon”** asaridagi kulolchilik terminlarining sharhi, izohi va tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu asarda sodda va murakkab terminlarga nisbatan izofali bog‘lanish orqali yaratilgan ikki qismli termin birikmalari ustunlik qiladi. Bundan tashqari, sohaviy lug‘atlar va izohli lug‘atlar qatorida “Tojikon” asari ham ingliz, o‘zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki har bir termin tarixning ma’lum davrlarida shakllanib, manbalarda rasmiylashtirilgan. Yuqorida qayd etilgan kulolchilik terminlari va termin birikmalari hozirgi kunda ham o‘z shakli va ma’nosini saqlagan holda kulolchilik sohasida keng qo‘llanilmoqda.



1.1-rasm. Mazkur asardagi terminlarning statistik tahlilini quyidagicha tasvirlash mumkin:


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining etimologiyasi va tematik tahlili”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafi *“Chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining etimologik tahlili”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot ishining ushbu qismida kulolchilik sohasiga oid ba’zi tayanch so‘z va terminlarni etimologik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

“Kulol” – so‘zi o‘zbek tiliga qadimiy fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, dastlab *“sopol idishlar yasovchi usta”* ma’nosida ishlatilgan. Keyinchalik o‘zbek kulolchilik terminlar tizimining ajralmas qismiga aylangan. “**Kulol**”– so‘zining ildizi turkiy va qadimiy forsiy manbalar bilan bog‘liq bo‘lib, uning kelib chiqishini ko‘plab tilshunoslar “kulol” so‘zini qadimgi forsiy (fors-tojik) tilidagi **“kulāl”** – (کالل) so‘zi bilan bog‘lashadi. *Kulāl* so‘zi “sopolchi”, “kulolchilik bilan shug‘ullanuvchi hunarmand” ma’nosini bildirgan. Bu so‘z qadimdan o‘zbek tiliga o‘tib, so‘zlashuv va terminologiyada mustahkam o‘rnashgan. O‘zbek tilida bu so‘z o‘zlashib, kulolchilik kasbi bilan bog‘liq termin sifatida ishlatiladi. Tojik tilidagi manbalarda **“kulol”** so‘zining etimologik nuqtai nazardan tahlil qilib ko‘ramiz. **“Kulol”** – terminining tojik tilidagi lug‘atlardagi izohi bir xil bo‘lmay, har bir lug‘atda u o‘z uslubida bayon qilingan. **Masalan,** “Фарҳанги Доро” lug‘atida “**kulol** [***kulala*** – кулолй] – *ҳунарманде, ки фаровардаҳо ва зарфҳои сафолй созад;* ***кулолгар, сафолгар, сафолпаз, кӯзагар, косагар, фаххор, кулолй****-sopol buyumlar va idishlar yasaydigan hunarmand;* ***sopolchi, sopol buyum yasovchi, sopolchilik ustasi, sopolpaz, ko‘zagar, kosagar, faxxor, kulolchilik bilan shug‘ullanuvchi****”* deb izoh berilgan[14].

Ingliz tilidagi kulolchilik terminlarining aksariyati etimologik jihatdan turli tillarga mansubdir. Mazkur faslda qator ingliz tilidagi kulolchilikka oid terminlar

[14] Доро Наҷот. Фарҳанги Доро (луғатномаи барчидаи тафсир ва решашиохтӣ). Ҷилди 2. Н-Я. Душанбе. 2021. – 430 с.

tahlil qilingan. Terminlarning etimologik tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, ***(cup, kiln)*** lotin tilidan tilidan; yunoncha ***(beaker);*** Nemis ***(clay, bowl, wheel, slip, fire, sand, wire);*** Fransuz ***(pot , soil, plate, vase, cover, pitcher, bat, enamel, cone, flamble, lustre, lute, mould, pintch, porcelain,);*** Daniya ***(dish, spoute, flint)*** va italyan ***(frit, majolica)*** tilidan paydo bo‘lgan bo‘lib, bugungi kunda ingliz tilidagi kulolchilik lug‘ati va terminlari tarkibida muhim lug‘aviy qismini tashkil etadi.



2.1-rasm. Ingliz tiliga boshqa tillardan kirib kelgan terminlarning statistik tahlilini quyidagicha tasvirlash mumkin

Shunday qilib yuqorida qayd etilgan tillarning kulolchilik terminlari etimologiyasini tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, ularning lug‘aviy tarkibining katta qismini boshqa tillardan olingan so‘z va terminlar tashkil etadi. O‘zbek va tojik tilining lug‘aviy tarkibida kulolchilik sohasiga oid terminlarning aksariyati etimologik jihatdan arab, yunon, sug‘d yoki rus tilidan olingan bo‘lsa, ingliz tilida esa fransuz, nemis va lotin tillaridan kelib chiqqan so‘zlar ko‘proq uchraydi.

Bobning ikkinchi paragrafi *“Ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining tematik tasnifi”*ga bag‘ishlangan. Kulolchilikning lug‘at va terminlarini ma’lum leksik, semantik va tematik guruhlarga bo‘lish mumkin, bu bo‘limdagi terminlarning aksariyati til va uning shevalari lug‘atida saqlanib qolgan. Har uch tilning lug‘at tarkibida narsa va hodisalarga mansubligi jihatidan kulolchilik sohasiga mansub umumiy so‘z va iboralar mavjud. Shunday qilib, ingliz, o‘zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminlarini tematik o‘ziga xosligi bo‘yicha ko‘plab turlarga bo‘lish mumkin. Bundan tashqari, tasniflash jarayonida tadqiqot sohasining u yoki bu terminlarining kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq real jarayon, hodisa va obyektlar bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Tadqiqot va tahlil jarayonida to‘plangan terminlarni biz tematik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratdik:

1. **Kulolchilik sohasida mehnatga oid terminlar**. Kulolchilik sanoatining qaysi sohasi bo‘lishidan qat'i nazar, kulollarning umumiy ro‘yxatidan tashqari, **“kulol”-“potter”** termini turli sohalardagi yoki kulolchilik sohasidagi

mutaxassislarga tushunarli boʻlgan koʻplab terminlarni oʻz ichiga oladi Shu bois, asosiy mashgʻuloti toʻgʻridan-toʻgʻri gʻildirakda oʻtirish yoki kulolchilik bilan shugʻullanuvchi kulollarga nisbatan tojik tilida **“созанда”** termini qoʻllanilganini, ingliz tilida esa **maker, doer** bajaruvchi terminlariga teng ekanligini aytish oʻrinlidir. Ayrim hollarda **“кулоли созанда”** termini oʻrniga **“*potter* – *maker*”** yoki **“*potter-manufacturer*”** termini qoʻllaniladi. Bu guruhga kiruvchi terminlarni ifodalashning oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular murakkab terminlar shaklida qoʻllaniladi va bu turdagi terminlarning ikkinchi qismi **“qilish”** fe’li, ya’ni hozirgi zamon asosi orqali organiladi, masalan: **косасоз – bowlmaker, кӯзасоз – jug – maker, pitcher–maker, табақсоз – dish-maker, platemaker, тубаксоз – pot – maker.**

2. Kulolchilik ishlab chiqarish qurollari va vositalariga oid terminlar. Bu guruhga kulolchilik asbob–uskunalari nomlarini ifodalovchi birliklar kiradi, masalan, **чархи кулолӣ** – *Аз биринҷӣ, яроқу аслиҳа, аз ҷумла шамшер ва пайкон сохта, бо чархи кулолӣ олоти сафолии хушсифат, вале бенақшу нигор майёр мекардаанд – Bronzadan yasalgan qurollar, shu jumladan qilich va nayzalar, kulol charxi bilan, nozik sopol asboblar, lekin ular rasm tayyorlayotgan edi*[15] – **potter’s wheel** – *Despite the clear evidence of their widespread use in the products, the archaeological remains of potter's wheels are slight and fragmentary at all periods*[16].

3. **Kulolchilik ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyoga oid terminlar.** Bu guruhning asosiy terminlaridan biri ***tuproq – хок – soil*** *– The potter chooses suitable **soils**, primarily clay **soils**, which in the wet state offer the plasticity required to model them in the desired form: cup, vase or statuette; Kulol mos tuproqlarni, birinchi navbatda loy tuproqlarni tanlaydi, ular hoʻl holatda ularni kerakli shaklda modellashtirish uchun zarur boʻlgan plastiklikni taklif qiladi: chashka, vaza yoki haykalcha; sopol loy uchun qoʻshimcha termin sifatida qaraladi*[17]. Shuni ta'kidlash kerakki, loyning har xil turlari mavjud va ularning har biri oʻxshash tillarda maxsus terminlar va iboralar bilan ifodalanadi: ***oqish tuproq- хоки сафед - white clay, argil; qizil tuproq - хоки малла, хоки зардчатоб - yellowish clay; koʻk loy- хоки кабуд - blue clay; qizil tuproq- хоки сурх - red clay*** gil tuproq; koʻk loy - koʻk loy; qizil tuproq - qizil gil va boshqalar[18]; Yumshoq suyultirilgan sopol loy termini boshqa narsa va moddalar bilan aralashgan loydan iborat boʻlib, terminologiya tizimida oʻz nomiga ega: **қум - sand; гаҷқол - lime-powder**. Bu guruhning asosiy terminlaridan biri **гилбӯтта** (gilbuta) - **apyrous clay, refractory clay, fireclay.**

4. Tayyor kulolchilik turlariga oid terminlar. Bu guruhga oid terminlar kulolchilik turlarini shakli va oʻlchamiga, tayyorlash texnologiyasiga, bezak va naqshlarning mavjudligiga koʻra umumiy xususiyatlarini oʻrganadi. **Masalan:** har

[15] Қосимова М.Н. Мухтасар оид ба истилоҳоти забоншиносии пешин. – Душанбе, 2003. – 67 с.
[16] The New Grolier Webster International Dictionary of the English Language (Encyclopedic edition). Volume I–II. New York. 1971.– 138 p.
[17] Султон М.Ҳ. Ташаккул ва такоммули истилоҳоти илмии форсӣ-тоҷикӣ. – Душанбе: Дониш, 2008. – 153 с.
[18] Чавчавадзе Т. А. Именное словообразование в новоперсидском языке. Монография. – Тбилиси: Мецниереба,1981. – 215 с.

xil turdagi koʻzalar quyidagi terminlar bilan qoʻllaniladi: **кӯзаи калон** – *a big jug*, **нимкӯза** – *a half jug*, **кӯзача** – *a small jug (katta koʻza, yarim koʻza, kichik koʻza).* Bundan tashqari, turli funksiyalar uchun ishlatiladigan qozonga oʻxshash mahsulotlar uchun bir qator terminlar mavjud: ***кӯгача//кӯгича*** *(b.233), пастнӯлак ва ё пастнӯлук* (b. 57), *кӯзаи қарин, сепоя, кӯзаи қал-қал или қул–қул (b.237), чағна, дӯлча тумча, зеби нул, бунук (idishcha, past tubli idish, quyi teshikli sopol idish, qorinsimon koʻza, piyola, qalqillovchi koʻza, boʻyinli idish, tomizgʻich idish, ogʻzi tor idish, xum va boshqalar (b. 236) (Е.Пещерева. Гончарное производство Средней Азии).*

Bobning uchinchi paragrafi *"Chogʻishtirilayotgan tillarda oʻzlashtirilgan kulolchilik terminlari"*ga bagʻishlang

an. Mazkur faslda oʻzlashtirilgan leksik birliklarning til tizimiga kirib kelish yoʻllari hamda ularni oʻzlashtirish vositalari lingvistik nuqtai nazardan oʻrganilgan. Kasb–hunar va hunarmandchilik terminlarining shakllanishi va rivojlanishiga asl oʻzbek, tojik va ingliz soʻzlari asos boʻladi. Bu termin turkumi kulolchilikning terminologik tizimida ham keng oʻrin egallaydi va ularning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagi tojik va ingliz tilidagi mahalliy soʻzlar tashkil etadi: *сафол, гил, коса, лой, чарх, офтоба, дастшӯй, хум, дег*[19]*.; earthenware, ceramic, clay, bowl, wheel, narrow–naked jug for washing (watering), washstand, washbowl, pot, copper*[20]. Biroq oʻzbek, tojik va ingliz tillarining lugʻaviy tarkibida, jumladan, kulolchilik terminologiyasida oʻzlashtirilgan soʻzlar juda koʻp. Shuning uchun biz tadqiqot jarayonida toʻplangan soʻz va terminlarni quyidagicha tasnifladik:

Arabcha oʻzlashmalar: Arab tilidan oʻzlashtirilgan terminlar keng tarqalgan boʻlib, ayniqsa kasb va hunarmandchilik sohalarida faol qoʻllaniladi. Ushbu terminlar tilimizning leksik boyligini oshirgan boʻlib, tarixiy taraqqiyot jarayonida ilm-fan, madaniyat va mehnat faoliyatining turli yoʻnalishlarida mustahkam oʻrin egallagan. ***Masalan:*** *doʻkon, xalifa, qadah, tabaq, mashrafa, naqsh, naqqosh va boshqalar*[21]. **Ruscha**–**xalqaro terminlar**: Oʻzbek va tojik tillarining lugʻaviy tarkibiga juda koʻplab ruscha – internatsional soʻzlar hamda terminlarning kirib kelgan. Ruscha-xalqaro terminlar kulolchilik sanoati lugʻatining muhim qismini tashkil qiladi va kulolchilik mahsulotlari turlari bilan bogʻliq: ***фабрика, сех, турба, печка, глазур, кафел, сувинер, майолика, сервис, графин, самовор, кубок*** va boshqalar[22]. Ruscha-internatsional soʻzlarning aksariyati fonetik jihatdan oʻzgarishga uchragan boʻlib, ular tojik va oʻzbek tillarining fonetik tizimiga moslashgan holda adabiy til tarkibiga kirib borgan. Bunday soʻzlar, asosan, ogʻzaki nutq orqali tilga oʻzlashtirilgan boʻlib, dastlab soʻzlashuv uslubida qoʻllanila boshlangan. **Ingliz tilidan oʻzlashtirilgan terminlarga** kelsak, shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilidan olingan terminlarning aksariyati lotin va yunoncha elementlarga ega, chunki inglizlar bu xalqlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqada

[19] Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – М.: Изд-во Академии наук СССР, 1959. – 71 с.
[20] Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. (2010). New Eighth Edition. Oxford, New York: Oxford University Press. – 336 p.
[21] Oʻsha manba: B. 244.
[22] Oʻsha manba: B. 178.

bo‘lgan. O‘zbek va tojik tillarida rus va arab tillaridan olingan terminlarning juda ko‘p qismini uchratish mumkin. Chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining katta qismi kimyoviy va fizik nomlarga ega, masalan: “*additive – qo‘shimcha; agent – modda, arcanum – arkan, amorphous – amfor, barium – boriy, ceramics – sopol, colo(u)r – rang, corundum – korund, gypsum – gips, glue – yelim, gravity – og‘irlik, flux – erish, ferrum – temir, lithium– litiy”*[23].

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “*Kulolchilik terminologiyasining leksik-semantik xususiyatlari”* deb nomlanib, uning birinchi paragrafi *“Ingliz, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlarining semantik xususiyatlari”*ga bag‘ishlangan. Lingvistik tadqiqotlarda an’anaviy ravishda ko‘rib chiqiladigan tilning semantik hodisalariga asosan sinonimiya, polisemiya va omonimiyalar kiradi. Mazkur tadqiqotimizda biz, asosan, xuddi shu kabi semantik munosabatlarni tadqiq va tahlil qilamiz.

“Gil” termini kulolchilik sohasidagi asosiy terminlardan hisoblanadi hamda, ko‘p ma’noga ega bo‘lib, manbalarda quyidagicha talqin qilinadi. ***“Gil”*** **–** terminining inglizcha ekvivalenti ***“clay” (loy)*** birligi bo‘lib, ingliz tili talqini manbalarda quyidagi ma’nolarni bildiradi: ***1).*** *gil tuproq turi bo‘lib, ho‘l bo‘lganda yumshoq, quruq bo‘lsa qattiq bo‘ladigan loy;* ***2).*** *mayin, yopishqoq qattiq tuproq bo‘lib, ho‘l bo‘lganda qayta ishlanadi, quritib pishirilgandan so‘ng undan sopol va kulolchilik buyumlari tayyorlanadi;* ***3)****. kattaligi odatda 0,002 mm dan kam bo‘lgan loydan kichikroq zarralari bo‘lgan cho‘kindi;* ***4).*** *tennis korti uchun loy maydoni sifatida ishlatiladigan qotib qolgan tuproqning yuqori qatlami;* ***5).*** *inson tanasining moddasi; o‘lik tuproq;* ***6).*** *sarg‘ish-jigarrang qanotli yevropa kuyasi;* ***7).*** *chastotasi bo‘yicha bir necha turdagi tuproq.* Yuqorida qayd etilgan yetti ma’nodan faqat birinchi, ikkinchi va uchinchi ma’nolari ***“clay”*** so‘zining kulolchilik sohasida termin sifatida qo‘llanilishini bildiradi. Shuningdek, tojik tilidagi ***“Ibriq”*** so‘zi ham ko‘p ma’noga ega bo‘lib, quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi: *1). May idishi; 2). Obdaston; 3). Quyosh; 4). Bir ko‘za suv; 5). Yorqin qilich; 6). Yorqin kamon; 7). Go‘zal ayol*[24]. Yuqorida qayd etilgan ma’nolardan faqat ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi ma’nolari kulolchilik sohasi terminologiyasiga tegishlidir.

Keyingi leksik-semantik hodisa sinonimiya bo‘lib, u boshqa til hodisalari qatori, har bir tilning leksik tizimidagi semantik munosabatlar turlarining asosiy turlaridan biridir. Tilshunoslikda sinonimlarning tasniflari soni son-sanoqsiz. O.S.Axmanova sinonimiya hodisasiga quyidagicha ta’rif keltiradi: “sinonimlar – bu tematik guruh shakllari bo‘lib, a) bir nutq bo‘lagiga tegishli va b) ma’no jihatidan shunchalik yaqinki, ularni nutqda muvofiq tanlash uchun, ularning semantik va stilistik xususiyatlarni aniq bilishni talab etiladi”[25]. Mazkur tadqiqotda chog‘ishtirilayotgan har uch tilda morfologik tarkibi jihatidan farq qiluvchi

[23] The New Grolier Webster International Dictionary of the English Language (Encyclopedic edition). Volume I–II. New York. 1971.– 248 p.

[24] Доро, Нақот.Фарҳанги Доро (луғатномаи барчидаи тафсирӣ ва решашинохтӣ). Ҷилди 1. А-М. Душанбе. – 2021. – 593 с.

[25] Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. 3е изд-е. – Москва: Русский язык, 1986. – 238 с.

oʻxshash soʻz va terminlar mavjud boʻlib, ular **a)**. **oddiy sinonimlar**, yaʼni birgina oʻzakdan tashkil topgan sinonimlar: ***jug, pitcher, ewer, pot – koʻza, kosa, piyola, qadah – кӯза, сабӯ, қадаҳ, ҷом, пиёла; b).*****yasama sinonimlar**, yaʼni prefiks va qoʻshimchalardan iborat sinonimlar: *koʻzagar, kosagar, oftoba, xumdon, safolsoz, kulol, usta, hunarmand–кӯзача, кӯзагар, косагар, гулдон, офтоба, хумдон, пиёлача, гилнок, сафолгар, кулолгар;* ***c).*****murakkab sinonimlar**, yaʼni ikki yoki undan ortiq oʻzakdan tashkil topgan sinonimlar: *koʻzasoz, oftoba, gilmoya – кӯзасоз, обдаста, гилхок* kabi guruhlarga boʻlinadi. Chogʻishtirilayotgan har uch tilning lugʻat tarkibida ***-er/-or; -gor/-gar; -гор/-гар*** qoʻshimchalari yordamida yasalgan sinonimlar mavjud boʻlib, ular kulolchilik sohasida sinonim sifatida qoʻllanadi: ***Masalan:*** *potter, koʻzagar, kosagar, коргар, косагар, кулолгар*.

Omonimlar polisemiya va sinonimiya bilan bir qatorda har qanday tilning muhim hodisalaridan biri hisoblanib, oʻzining ayrim belgilari bilan farqlanadi. Tadqiqot jarayonida toʻplangan omonimlarni aytib oʻtilgan fikr-mulohazalar asosida leksik omonimlar, sarfiy omonimlar va leksik-grammatik omonim kabi quyidagicha guruhladik. **I. Leksik omonimlar.** Quyidagi misollar orqali biz turli guruhdagi omonimlarni tahlil qiladigan boʻlsak, **“Дӯкон” –“Doʻkon”** termini (1) ***tojik tlida:*** *Дастгоҳи бофандагӣ, ки дар он матоъҳои пахтагин, пашмин ва абрешимин бибофанд;* ***oʻzbek tilida:*** *Paxta, jun va ipak gazlamalar toʻqiydigan dastgoh; (2)****tojik tlida:*** *устохонаи косибии ҳунармандон: дукони заргарӣ, дукони тунукасозӣ, дукони чармгарӣ;* ***oʻzbek tilida:*** *hunarmand ustaxonasi: zargarlik sexi, tunuka, charm sexi;(3)* ***tojik tlida:*** *хоначаҳои махсуси фурӯши фаровардаҳои гуногун;* ***oʻzbek tilida:*** turli mahsulotlar sotuvchi maxsus doʻkonlar[26].Quyidagi berilgan uchta tahlillar shuni koʻrsatadiki, **“doʻkon”** terminining barcha maʼnolari ot turkumiga mansub boʻlib, bu holat mazkur birlikning **leksik omonim** sifatida namoyon boʻlishini isbotlaydi.

II. Morfologik omonimlar. Diqqatimizni murakkab ***“workshop”*** terminiga qaratadigan boʻlsak u quyidagi maʼnolarni bildiradi: 1). *a room or building in which goods are manufactured or repaired; 2). a meeting at which a group of people engage in intensive discussion and activity on a particular subject or project; 3). present a performance of (a dramatic work), using intensive group discussion and improvisation in order to explore aspects of the production prior to formal staging;*[27]. ***“Workshop”*** terminining yuqoridagi uchta taʼrifidan yaqqol koʻrish mumkinki, dastlabki ikkita taʼrif ot maʼnosida qoʻllanilgan boʻlsa, uchinchi taʼrif esa feʼl maʼnosini bildiradi. Bu esa mazkur termin **morfologik (sarfiy) omonim** ekanligini isbotlaydi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi *“Chogʻishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining paremiologik va frazeologik birliklarda ifodalanishi”* deb nomlangan. Bu paragrafda kulolchilik terminlari xalq donishmandligi va ijtimoiy qadriyatlar bilan bogʻliqligini, hamda ular orqali milliy tafakkur va lingvomadaniy xususiyatlar ifodalanishi koʻrsatib berilgan. Har bir xalqning oʻziga

[26] Oʻsha manba: B. 288.
[27] Oʻsha manba: B.1147.

xos dunyoqarashi, hayot tajribasi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari ko'p jihatdan ularning maqollarida ifodasini topadi. O'zbek xalq maqollari xalq donishmandligi, madaniy merosi va tafakkurining mahsuli sifatida tilshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya sohalari uchun qimmatli manba hisoblanadi. Jumladan, o'zbek, tojik xalq maqollari orasida kulolchlikka oid so'zlar ishtirok etgan ko'plab maqollarni uchratishimiz mumkin. **Masalan:** ***"Sopol chinni bo'lmas, begona – ini"*** [M. Sodiqova "Maqol va matallar to'plami", b. 28]**.** Ushbu maqol xalqimiz orasida keng qo'llanilib, leksik jihatdan tahlil qilinganda quyidagicha ma'nolarda qo'llanilishi mumkin: ***Sopol*** – oddiy, arzon, tez sinuvchi kulolchilik buyumi. ***Chinni*** – nafis, qimmatbaho, mustahkam va bezakli sopol buyum turi. ***Begona*** – bu yerda "o'z odamimiz emas", ya'ni qon-qarindoshlik jihatdan yaqin bo'lmagan shaxs. **Ini** – tug'ishgan, yaqin qarindosh, yaqin odam. Maqolda *sopol va chinni* qarama-qarshi timsollar sifatida qo'llaniladi. ***"Sopol – chinni bo'lmas"*** degan jumla *"oddiy narsa hech qachon yuqori darajadagi buyumga aylanolmaydi"* degan ma'noni bildiradi. Bu orqali odamlar orasida tabiiy tafovutlar mavjudligini anglash mumkin. Ikkinchi qism – *"begona – ini (ya'ni aka-uka)"* esa ijtimoiy va hissiy masofani bildiradi. Begona hech qachon qarindoshning o'rnini bosa olmaydi degan ma'no yotadi. Bu maqol o'zbek xalqining qarindoshlik munosabatlari, jamiyatdagi tabaqalanish, sodiqlik va o'ziga xoslikni qadrlash kabi qadriyatlarini yoritib beradi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi *"Chog'ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining badiiy matnlarda ifodalanishi"*ga bag'ishlangan. Har bir xalqning tili uning madaniyati, urf-odati va hayot tarzining ko'zgusidur. Xususan, xalq amaliy san'atining qadimiy va barqaror yo'nalishlaridan biri bo'lgan kulolchilik hunari asrlar davomida turli xalqlarning madaniyatida chuqur iz qoldirgan va badiiy adabiyotda o'z aksini topgan. Ingliz, o'zbek va tojik adabiyotidagi kulolchilik terminlarini qiyoslash orqali har bir tilda mavjud paremiologik birliklar, frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalarining umumiy va farqli tomonlarini aniqlash, shu orqali ularning xalq ongidagi konseptual modelini tiklash mumkin bo'ladi. Jumladan, o'zbek badiiy asarlaridan olingan ushbu parchaning tahlilini ko'rib chiqsak: *"Qo'rboshi o'zining imo va ishorasiga o'tkanlikdan o'zining ko'zida o'ch olish quvonchlari va undan keyingi Xomidning o'ziga ma'lum bo'lg'on bir baxt umidlari o'ynar edilar. Qo'rboshi tokchadan,* ***davot (siyohdon)*** *qalam olib oldig'a qo'ydi-da yozuvg'a hozirlanib so'radi"...[Abdulla Qodiriy, "O'tkan Kunlar", b. 12]*. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan parchadagi bu satrlar badiiy matnda nafaqat voqea rivojining ifodasi, balki muhim moddiy-madaniy obrazlarning mujassamlanishidir. Ayniqsa, bu parcha doirasida tilga olingan **"davot"** so'zi kulolchilikka oid termin sifatida alohida semantik yuklama kasb etadi. Lug'aviy nuqtai nazardan, *davot* – siyoh saqlash va yozuv uchun ishlatiladigan idishdir. Semantik tahlil jihatidan, "davot" so'zining ushbu parcha kontekstida ishlatilishi bevosita yozuvga, tafakkurga va qaror qabul qilishga bog'langan. Qo'rboshining davotni olib, qalam bilan yozishga hozirlanishi uning rasmiy bir hujjat tayyorlash, ijtimoiy yoki shaxsiy masalaga oid muhim qaror qabul

qilish arafasida turganidan dalolat beradi. Shu ma’noda, ***“davot”*** – fikr, ma’rifat, adolat yoki hokimlik belgisi sifatida badiiy obrazga aylanadi.

Ingliz tilida ham ko‘plab badiiy matnlarda kulolchilikka oid terminlar har xil ma’nolarda qo‘llanadi. Jumladan ushbu badiiy asardan olingan parcha fikrimizga asos bo‘ladi: *“In a corner was a fireplace, with a little* ***cracked earthenware*** *teapot on the hob, and a plate or two left from the last meal. The room had a faded air, as if it had once been a parlor but had since been used as a store for broken crockery.” [Ch. Dickens “Great Expectations”, p,78].* Ushbu badiiy parchani leksik va semantik tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak: ***Earthenware teapot (Sopol choynak)*** – ingliz tilida *“yer” (earth)* va *“buyum” (ware)* so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, tuproqdan (loydan) yasalgan sopol buyumni bildiradi. “*Teapot”* – “choy” (*tea*) va “qozon” yoki “idish” (*pot*) so‘zlarining birikmasi. ***Earthenware:*** *Pishirilgan loydan tayyorlangan, odatda xira va suv o‘tkazuvchi sopol buyum.* “Cracked” (sindirilgan) sifatlovchi so‘z sopol choynakning eskiligini va xonadondagi iqtisodiy muammolarni ko‘rsatadi. Estetikdan ko‘ra amaliy va hatto fojiali ma’no yuklaydi. **Crockery (Idish-tovoqlar, chinni buyumlar).** *Crock* – qadimgi ingliz tilida “idish” ma’nosini bildirgan, skandinav tillaridan kirib kelgan (*krukka* – qum idish). *Crockery: Loydan pishirilgan idishlar (kosa, likop, choynak va h.k.). “Broken crockery”* iborasi uyning buzilgan, tashlandiq holatini, uy egalari hayotidagi iztirob va iqtisodiy tanazzulni ifodalaydi.

Ushbu o‘rinda tojik tilidagi badiiy parchadan ham misol keltirib o‘tamiz: *Арбоб аз забони зани худ номи “золим”–ро шунида Гулбибиро ба ҳоли худ гузошт ва дартоз омада занаш ро бардошта ба замин зад. Инро як миқдор мушту ла гаткорӣ кард. Пас аз он занашро гузошта ба тарафиписараш давид ва “ба ҳама ноқобилии ту сабаб аст” гуфта мехост ӯро ҳам занад. Лекин Ибод фурсат надо да аз дар баромада гурехт ва Арбоб ҳам ӯро пеш карда баромад. Лекин пояш ба* ***лой лағжида*** *афтод ва боз гашта ба хонаи худ даромада, мисли саги сӯзанхӯрда аз алами риш “оҳ, воҳ” гӯён нолида оқибат хобаш бурд* [С. Айни “Одина”, b, 177]. Sadriddin Ayniying “Odina” asaridan olingan quyidagi parcha –*“Лекин пояш ба лой лағжида афтод...”* – tashqi jismoniy harakat orqali qahramonning ichki holatini va dramatik vaziyatni badiiy ifodalashda xizmat qiladi. Matnda “loy” so‘zining ishlatilishi ayniqsa e’tiborga loyiq, chunki bu so‘z kulolchilik terminologiyasiga mansub bo‘lib, o‘zida chuqur semantik va ramziy qatlamlarni mujassam etadi. Lug‘aviy jihatdan “loy” – tuproqning suv bilan qorishib, xamir holatiga kelgan shaklidir. Aynan shu modda kulolchilik san’atining asosiy xom ashyosi hisoblanadi. Mazkur badiiy parcha kontekstida esa “loy” so‘zining ma’nosi yanada kengaygan.

Yuqoridagi tahlillardan guvoh bo‘ldikki, kulolchilikka oid leksik birliklar matnda nafaqat asosiy lug‘aviy ma’noni**,** balki chuqur ramziy, ijtimoiy va estetik mazmunlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Ular xalq hayot tarzini, estetik qadriyatlarni va milliy hunarmandchilikning semantik ko‘lamini ifodalovchi boy semantik zamin yaratadi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Ingliz, o‘zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminlari tarixiy taraqqiyoti va genetik ildizlari tadqiq etilib, ularning til tizimidagi evolyutsion o‘rni aniqlandi. Mazkur tillarda kulolchilik terminologiyasi shakllanishining diaxron yo‘nalishda olib borilgan tadqiqi ularning qadimiy hunarmandchilik faoliyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbek va tojik tillarida ushbu terminlar ko‘p hollarda xalq og‘zaki ijodi, maqollar, aforizmlar va so‘zlashuv uslubida saqlanib qolgan bo‘lsa, ingliz tilida ular yozma matnlarda XII–XVII asrlardan boshlab terminologik birlik sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Tadqiqot davomida turli davrlar til materiallariga (qadimgi yozma yodgorliklar, lug‘atlar, hunarmandchilikka oid risolalar) asoslanib, kulolchilik terminlarining zamonlar kesimida semantik o‘zgarishlari, funksional kengayishi, ixtisoslashuvi yoki arxaiklashuvi aniqlandi. Xususan, tadqiqot davomida 674 ta tojik tilida, 559 ta o‘zbek tilida va 415 ta ingliz tilida, jami 1648 ta kulolchilikka oid terminlar tahlilga tortilgan.

2. Kulolchilikka oid terminlar shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar lingvistik va ekstralingvistik yondashuvlar asosida aniqlab berildi. Til tizimida kasb-hunar leksikasining shakllanishi bir qancha omillar bilan chambarchas bog‘liq: iqtisodiy-madaniy taraqqiyot, texnologik rivojlanish, xalqaro savdo, madaniy almashinuv va ijtimoiy mehnat taqsimoti. Tadqiqotda aniqlanishicha, o‘zbek va tojik tillarida kulolchilik terminlari ko‘proq endogen rivojlangan, ya’ni til ichidagi resurslar, mahalliy ishlab chiqarish turlari va an’anaviy hunar asosida shakllangan. Ingliz tilidagi terminlar esa ekzogen boyish yo‘llari, ya’ni lotincha, yunoncha va fransuzcha terminlarning o‘zlashuvi orqali kengaygan. Bu esa har bir til terminologiyasining shakllanish yo‘nalishi va struktur xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

3. Ingliz, o‘zbek va tojik tillaridagi kulolchilik terminlarining lisoniy xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, ularning morfologik, fonetik va sintaktik tuzilmalari bo‘yicha o‘xshashliklar va farqlar tizimlashtirildi. Terminlarning fonetik shakllanishi (masalan, qisqa va urg‘uli tuzilma, morfologik soddalik), morfologik tarkibi (o‘zak+affiks; affikssiz birliklar) va sintaktik mustaqilligi bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinib, ularning universal va tilga xos xususiyatlari ochib berildi. O‘zbek tilidagi “kulol”, “ko‘za”, “humdon” kabi terminlar odatda soddaligi bilan ajralib turadi, tojik tilida esa -ī qo‘shimchasi orqali sifatlashgan birliklar ko‘p uchraydi (masalan, *safinakī*), ingliz tilidagi *pottery, kiln, vase* kabi terminlar esa ko‘p hollarda lotincha kelib chiqishga ega bo‘lib, xalqaro terminlarga yaqinlashgan.

4. Chog‘ishtirilayotgan tillarda kulolchilik terminlarining semantik strukturasi tahlil etilib, sinonimiya, omonimiya va polisemiya hodisalari lingvistik mezonlar asosida aniqlashtirildi. Ushbu terminlarning ma’nodoshligi, ko‘p ma’noliligi va shakldoshligi har bir tilda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “ko‘za” termini idish, inson (ko‘za singari sabrli) va vaqt (ko‘p bora suvga boradigan ko‘za) ma’nolarida ishlatiladi. Tojik tilida bu holat ozroq uchrasa-da,

ingliz tilidagi “jar” so‘zi ham texnik idish, musiqiy asbob yoki “to‘qnashuv” (to jar with) ma’nolarini oladi. Bunday ko‘p ma’nolilik, omonimlik va sinonimlik terminlarning nutqiy muhitda qanday semantik yuklamaga ega ekanligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Kulolchilik terminlarining hozirgi zamon til tizimidagi holati va ularning yangilanish tendensiyalari lingvomadaniy kontekstda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida zamonaviy matnlardagi kulolchilik terminlarining qo‘llanish chastotasi, yangi terminlarning yuzaga kelish sabablari va xalqaro standartlar asosida unifikatsiyalash tendensiyalari o‘rganildi. Masalan, ingliz tilida “3D printed ceramics”, “smart kiln” kabi yangi terminlar texnologik taraqqiyot natijasida paydo bo‘layotgan bo‘lsa, o‘zbek tilida “zamonaviy kulolchilik” iboralari ko‘proq tavsifiy birlik sifatida paydo bo‘layapti. Bu esa til tizimidagi dinamika va yangilanish mexanizmlarini ko‘rsatadi.

6. Kulolchilik terminlarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari tahlil qilinib, ularning leksik-semantik tizimdagi joylashuvi hamda nutqdagi realizatsiyasi ko‘rsatib berildi. Terminlar o‘zaro qanday paradigmal guruh hosil qilishi (masalan, idish turlari: ko‘za, piyola, lagan, tovoq) va sintaktik jihatdan qanday birikmalarda ishtirok etishi (“ko‘za sinish”, “loy yanchish”, “kulol g‘isht qoradi”) tahlil qilindi. Bu terminlarning nafaqat nominativ, balki semantik-funksional yuklamalarini aniqlashga xizmat qildi.

7. Har uch tilga oid kulolchilik terminlari asosida lug‘aviy birliklar korpusi shakllantirilib, ularning leksik-semantik tahliliga asoslangan o‘quv-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar xorijiy til o‘qitish, terminologiyani o‘rgatish, tarjima amaliyoti va kasb-hunarga oid matnlar bilan ishlashda qo‘llanilishi mumkin. Terminlarni tematik guruhlash, ularning sinonimik va antonimik juftliklarini aniqlash, kontekstual qo‘llanishini o‘rgatish orqali til o‘rganuvchilar tilni terminologik jihatdan chuqurroq o‘zlashtira oladi.

8. Tadqiqot natijalari ingliz, o‘zbek va tojik tillaridagi kasb-hunar leksikasini chog‘ishtirma yondashuvda o‘rganish bo‘yicha tilshunoslikda yangi yondashuvlarni taklif etib, leksikologiya, semasiologiya, terminologiya va tarjimashunoslik kabi sohalarda muhim nazariy asos yaratdi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar boshqa sohalardagi (qurilish, ipakchilik, hunarmandchilik, temirchilik) kasbiy leksikani qiyosiy tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot madaniyatlararo kommunikatsiya va til madaniyati yo‘nalishlarida amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan natijalarni taqdim etdi.

9. Kulolchilik terminlari faqat texnik yoki kasb-hunar leksikasi bilan chegaralanmaydi, balki badiiy adabiyot, maqollar, diniy va falsafiy matnlarda ham keng qo‘llanilib, o‘zbek, tojik va ingliz madaniyatlarida umumiy hamda o‘ziga xos semantik jihatlarini ifodalaydi. Shu o‘rinda kulolchilik terminlari asosida shakllangan paremiologik va frazeologik birliklar xalq tafakkurining ma’naviy, axloqiy va estetik mezonlarini o‘zida aks ettiradi. Bu terminlar o‘zbek va tojik maqollarida keng qo‘llanilgan bo‘lib, insonning xatti-harakatini, axloqiy

fazilatlarini, tarbiyasini hamda hayotiy tajribasini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi hamda ularning paremiologik va frazeologik birliklarda ishlatilishi ushbu soha leksikasining madaniy va estetik qiymatini oshiruvchi vosita sifatida qaraladi. Bu birliklar lingvomadaniy tadqiqotlar uchun ayniqsa qimmatli bo‘lib, xalq tafakkuridagi obrazlilikni, ramziylikni va semantik yondashuvni ko‘rsatadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕН ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

НАРЗУЛЛАЕВА ДИЁРА ЗАЙНИДИН КИЗИ

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГОНЧАРНОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ, УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ЯЗЫКАХ

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Академии наук Республики Узбекистан регистрационный номер B2024.1.PhD/Fil2277.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Болтакулова Гулноза Фарруховна** Доктор философии (PhD) по филологическим наукам профессор
Официальные оппоненты:	**Сулайманова Нилуфар Жаббаровна** Доктор филологических наук (DSc), профессор
	Ахмедов Ойбек Сапарбаевич Доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «20» ноября 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 666 96). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36;.

Автореферат диссертации разослан «2» ноябрь 2026 года.

(Протокол реестра рассылки за № 62 от «2» ноябрь 2026 года)

Б.А. Холиков
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом языкознании в связи с развитием науки и технологий усиливается внимание к лингвистическому анализу новых терминов, проникающих в социальную, экономическую и политическую сферы. Терминология различных отраслей, в частности, единицы профессиональной лексики, рассматриваемые как национальное лексическое богатство языка, становятся актуальным объектом исследования с точки зрения их лингвистических и структурных особенностей. Это, в свою очередь, определяет необходимость изучения семантических характеристик единиц, относящихся к гончарному ремеслу, входящих в сферу профессиональной лексики, составления специализированных словарей для различных отраслей и выявления их специфических черт.

В ведущих научно-исследовательских центрах национальные языки и их лексический состав, терминология и профессиональная лексика, а также их структурные особенности изучаются на основе существующих лингвистических принципов. Формирование лексических единиц, относящихся к различным отраслям, их языковые признаки и выразительные возможности стали предметом широкого исследования, в результате чего были разработаны их научно-теоретические основы. Профессиональная лексика обладает как лингвистическими, так и экстралингвистическими особенностями, отражающими исторические и современные реалии, социально-экономическую жизнь, мировоззрение народа, его обычаи и традиции. В связи с этим исследование профессиональной лексики отдельных языков не только обогащает словарный состав национального языка, но и способствует развитию современной лингвистики, в частности, в области терминологии.

В узбекском языкознании одним из актуальных направлений является комплексное научное изучение лексических единиц, связанных с ремесленной деятельностью с целью раскрытия их семантики, выявления специфических черт национального языка, а также проведения лингвистических исследований, в частности в области гончарной лексики. Недаром подчёркивается: «В условиях современной глобализации каждая нация и независимое государство, отстаивая свои национальные интересы, в первую очередь уделяет особое внимание сохранению и развитию собственной культуры, исконных ценностей и родного языка»[28]. В этом контексте особую значимость в языкознании приобретают системные исследования профессиональной лексики как важного источника информации об истории народа, отражающего этапные изменения в образе жизни населения, а также его материальное и духовное наследие. Особенно важным представляется изучение территориальных вариаций таких единиц, поскольку они играют значительную роль в выявлении процессов развития

[28] Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5850 « О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка». . Источник: http://lex.uz/docs/4561730.

общенародного языка. С данной точки зрения исследование лексико-семантических и этимологических особенностей гончарной терминологии в английском, узбекском и таджикском языках в сопоставительном аспекте определяет научную значимость и актуальность настоящего исследования.

Настоящее исследование вносит определенный вклад в реализацию задач, обозначенных Указами Президента Республики Узбекистан № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», № ПП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», а также постановление № ПП-112 от 2 февраля 2022 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию сферы культуры и искусства», а также другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено согласно приоритетному направлению развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике сравнительно-исторические, историко-этимологические и структурные аспекты терминологии и отраслевой лексики были всесторонне исследованы, в рамках изучения терминологических систем различных сфер осуществлялись системные научные работы. В частности, значительный вклад в развитие терминоведения внесли такие учёные-лингвисты, как Ш. Губачкова, И. Семрадова, К. Бахадир, С. Ву – в зарубежной лингвистике; Г.О. Винокур, Д.С. Лотте, А.А. Реформатский, О.С. Ахманова, В.П. Даниленко, А.В. Суперанская, В.М. Лейчик, Т.Л. Канделаки, С.В. Рождественская – в русской лингвистике[29].

[29] Hubackova S., Semradova I. On Acquiring New Vocabulary of a Professional Text. // Procedia: Social and Behavioral Sciences. 2012. Volume 47. 382-386 p; Bahadır K. Mesleklerin Tanımlanması ve Sınıflandırılması Üzerine Bir Değerlendirme. //Journal of Turkish Studies. 2018. 13(Volume 13 Issue 19). 1219-1233 p; Woo S. Factors associated with the perception of parents and children regarding obesity-related terminology used by healthcare professionals in a sample of Korean children and adolescents with obesity. // Obesity Research & Clinical Practice. 2022. Volume 16, Issue 5. 421-428 p; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статьей по языковедению. – М., 1939; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.,1961; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 196; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2. – М.: Советская энциклопедия, 1969; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: ЛКИ, 2007. – 256 с.;

